

INGLIZ VA O'ZBEK RASMIY DISKURSIDA QO'LLANILADIGAN
DIPLOMATIK TERMINLARNING QIYOSIY TAHLILI**Saidov Xayrullo Shavkatovich***BuxDU, ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti, PhD***Jo'rayeva Shaxzoda Suxrojon qizi***BXU, 2-kurs magistrant talabasi*

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz va o'zbek rasmiy diskursida qo'llaniladigan diplomatik terminlarning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Ishda diplomatik leksikaning semantik, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari o'rganilib, ularning ikki til tizimidagi o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Diplomatik diskursda ishlatiladigan terminlarning standartlashuvi va xalqaro huquq normalariga mosligi ustuvorligi, ularning leksik-semantik, kontekstual qo'llanilishi tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: *terminologiya, atama, termin, terminologik maydon, iyerarxik birliklar, terminologik soha, sof diplomatik terminlar, leksikografik sath.*

Annotation: *this article provides a comparative analysis of diplomatic terms used in English and Uzbek official discourse. In the work, the semantic, pragmatic, and linguocultural features of diplomatic vocabulary are studied, and their similarities and differences in the two language systems are identified. The standardization of terms used in diplomatic discourse and the priority of their compliance with the norms of international law, their lexico-semantic, contextual application are analyzed.*

Key words: *terminology, term, term, terminological field, hierarchical units, terminological field, purely diplomatic terms, lexicographic level.*

Аннотация: *в данной статье проводится сравнительный анализ дипломатических терминов, используемых в английском и узбекском официальном дискурсе. В работе изучаются семантические, прагматические и лингвокультурологические особенности дипломатической лексики, выявляются их сходства и различия в двух языковых системах. Анализируется стандартизация терминов, используемых в дипломатическом дискурсе, и приоритет их соответствия нормам международного права, их лексико-семантическое и контекстуальное использование.*

Ключевые слова: *терминология, термин, термин, терминологическое поле, иерархические единицы, терминологическая область, чисто дипломатические термины, лексикографический уровень.*

Ijtimoiy hayotning rivojlanishi tilning rivojlanishiga hamisha turtki berib turgan, bu tilning rivojlanishidagi yetakchi qonuniyatlardan biridir. Har bir milliy

tilning leksikasi doim harakatda, o'zgarishda bo'ladi. Tilda yangi so'zlar paydo bo'lib, ular til leksikani to'ldiradi, boyitadi. Yangi so'z hayotning talabi bilan tug'iladi yoki aksincha tildagi mavjud so'zlar sekin astalik bilan muomaladan chiqib eskirgan so'zlar qatoridan o'rin egallaydi. Ayniqsa, terminologiyada bu jarayon ko'zga yaqqol tashlanadi. Hozirgi kunda termin so'zi bilan bir qatorda atama, istiloh so'zlari ham ayni ma'noda qo'llanilmoqda. Lekin ular termin so'zining hozirgi ma'nosini to'liq ifoda eta olmaydi. Atama terminning xususiyatlarini aniq ifodalay olmaydi. Termin atamaga nisbatan torroq tushuncha hisoblanadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, termin bugungi kunda ilmiy tushunchalarga nisbatan qo'llaniladi. Terminni faqat leksikografik sathda tekshirish yetarli emas, deb o'ylaymiz, chunki termin ham keng ma'noda lug'aviy birlik hisoblanar ekan, u leksik va grammatik sathda ham ko'rib chiqilishi zarur.

V.P.Danilenkoning ta'kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi. Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi yani leksikografiyasi, so'z yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi. X. Xyuellning qayd etishiga ko'ra, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisidir. Biz terminlar ma'nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz. Termin so'zini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunoslar (logiklar) uchun termin bu aniq obyektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig'indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so'z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so'z termin bo'lishi mumkin. Fan va texnikada termin sun'iy o'ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so'z sanaladi. Bunday so'zlarning qo'llanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi yoxud chegaralanadi. Umumtil terminlaridan farqli o'laroq, ilm-fan, texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular o'z ma'nolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy (tushunchaga oid) terminologik maydon mos keladi. Fandagi har qanday rivojlanish, taraqqiyot ilmiy terminlarning yuzaga chiqishi yoki oydinlashishidan darak beradi. Termin va terminologik leksika tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur.

Terminga qo'yiladigan asosiy me'yoriy talablar dastlab terminologiya maktabi asoschisi D.S.Lotte tomonidan ishlab chiqilgan. Bu talablar quyidagilardir: tizimlilik, konkretga bog'liq emaslik, qisqalik, bir ma'nolilik, aniqlilik, oddiylilik, tushunarlilik, tadbiiq etilganlik darajasi va boshqalar. Vinokurning fikricha: har bir terminologik sohada boshqa terminologiya bilan yoxud umumadabiy so'zlar bilan

bir xil bo'lgan terminlar mavjud. Mavzudan kelib chiqqan holda diplomatik terminlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Sof diplomatik terminlar;
2. Umumadabiy so'zlar bilan yoki boshqa terminologik sohadagi terminlar;
3. Umumadabiy so'zlar;
4. Ikki tilli lug'atda keltirilgan, lekin diplomatik termin sifatida belgi qo'yilmagan va diplomatik lug'atlarga kiritilgan so'zlar.

Diplomatik terminologiya esa (diplomatik terminlar yig'indisi), har bir tilda spetifik (o'zgacha)dir. Unda diplomatik til asos olgan va unda huquqning predmeti sohasidagi ma'lumotlar to'planib boradi. Diplomatik terminlarga quyidagi xususiyatlar xos:

1. Keng tarqalganlik;
2. Sistemaviylik;
3. Ichki yaxlitlik
4. O'zaro uzviylik;
5. Turg' unlik.

Diplomatik terminlarni tasniflash ularni sof diplomatik terminlarga va umumiste'mol tildagi terminlarga bo'linishiga asoslanadi. Bu tasnif ularni o'z navbatida ikkiga bo'ladi: sof diplomatik terminlar va ikki taraflama terminlar, ya'ni, ham diplomatik termin, ham umumadabiy so'z. Misol tariqasida ko'radigan bo'lsak:

PERSON. (inglizcha. persona - kerak, maqbul shaxs) Diplomatik termin bo'lib, qabul qiluvchi davlat tayinlanishiga va kelishiga rozi bo'lgan diplomatik vakil tushuniladi. Elchi yoki konsullik vakolatxonasi rahbariga nisbatan AGREMAN yoki EKZEKVATURA olish protsedurasi qo'llaniladi. Boshqa diplomatik xodimlar uchun mamlakatga kirish vizasi berilishining o'zi ularning persona grata hisoblanishlarini bildiradi.

PREAMBULA. (inglizcha pre'ambule - so'zboshi) Xalqaro shartnomaning kirish qismi. Konvensiyaning maqsadlarini yoritib beruvchi tushuncha bo'lib, uning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Preambulada, odatda, shartnoma imzolayotgan tomonlar sanab o'tiladi, shartnomani imzolashga undagan narsa, undan maqsad bayon etiladi Bundan tashqari preambuladan konvensiyaga izoh berishda ham foydalaniladi.

Preambula xalqaro hukumatlararo va boshqa tashkilotlar va konferensiyalar qarorlari (rezolyutsiyalari)da ham bo'lishi mumkin.

NATURALIZATSIYA. Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning ixtiyoriy ravishda davlat boshlig'i nomiga yoki davlat hokimiyatining boshqa oliy organiga iltimosnoma berish orqali mazkur davlatning

fuqaroligini qonuniy qabul qilishi. Fuqarolikka qabul qilish qoidasi davlat qonunchiligi tomonidan tartibga solinadi.

NE VARIETUR (lot. – o'zgarishi mumkin emas). Diplomatik amaliyotda shartnoma matnini oxirgi muvofiqlashtirish yoki tasdiqlash (parafirovaniye) asnosida ishlatiladigan termin bo'lib, hujjatga boshqa o'zgartish va qo'shimchalar kiritish mumkin emasligini anglatadi.

NON PAPER (ing. – mavjud bo'lmagan qog'oz). Zamonaviy diplomatiya va siyosiy amaliyotda keng qo'llanuvchi hujjat turi. U memorandum, ya'ni muhokama etilayotgan hujjat bo'yicha taklif etilayotgan tushuncha bilan masalaning mohiyati bayon etilgan qisqa matnni anglatadi. Odatda, bunday hujjat sarlavha va imzoga ega bo'lmaydi, binobarin texnik tagsarlavhalari mavjud bo'lishi mumkin.

Bu turdagi hujjatlardan foydalanish kiritilgan taklifni, muzokaralarda yuzaga kelgan vaziyatni bimalol (yetarli darajada) erkin shaklda belgilab qo'yish, ikkinchi (kelishuvchi) tomon ko'rib chiqishi uchun yangi elementlar kiritish imkonini beradi. Odatda, bu kabi hujjatlar rasmiy qog'oz sifatida ko'rilmaydi va ishchi material sifatida xizmat qiladi.

Diplomatik terminlar o'ziga xos rasmiy til birliklari sanalib, nafaol lug'at tarkibiga kiradi hamda faqatgina maxsus soha vakillari undan foydalana olishadi. Diplomatik terminlar o'zlarining jiddiy lisoniy belgilanganligi, aniq bir kontekstual funksiyalarga egaligi bilan ajralib turadi. Diplomatik terminlarning barcha tillarda xalqaro birliklar sifatida qabul qilinishi, ularning izohlaridagina ma'lum bir farqlarga e'tibor berishni talab qiladi xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arutyunova N.D. Discourse / Linguistic Encyclopedic Dictionary. M.: Soviet Encyclopedia, 1990. P. 136–137.
2. Brown, G. and G. Yule. Discourse Analysis. Cambridge: Cambridge University Press (Cambridge Textbooks in Linguistics), 1983.
3. www.wikipedia.com